



## PROFESSIONAL TA'LIMDA KASB MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH

**Esanbay Omonmuratovich Babayev**


*Sirdaryo viloyati Oqoltin tuman kasb-hunar maktabi direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada "Yangi O'zbekiston" kelajagi bo'lgan yoshlar uchun Mamlakatimizda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar Respublikamiz yoshlarining dunyoqarishi, tafakkur tarzi, ma'naviyatida o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Mamlakatning yuksalishi va taraqqiyotiga erishishida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ayniqsa, ma'naviy qadriyatlar, ta'lif-tarbiya doimo katta ahamiyat kasb etmoqda. O'sib-ulg'ayib kelayotgan o'quvchi-yoshlarning tarixiy ongini shakillantirish va ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muhum pedagogik vazifadir. SHubhasiz, bunda jamoat tashkilotlari va ta'lif muassasalarining alohida o'rni bor. Hozirgi kunda ma'naviyatimiz va madaniyatimizni asrash uchun, avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, tez rivojlanayotgan bugungi xayot voqeylegiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdag'i barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur. Yuqoridagilarni yoshlarimizni ongiga singdirish uchun avvalam bor o'qituvchi pedagogni o'zi kasbiy madaniyat egasi bo'lislighini va ma'nani yetuk pedagog bo'lishi uchun nazariy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, marifat, madaniyat, kasb madaniyati, kasbiy ta'lif, manaviy ahloqiy tarbiya, kasbiy tarbiya, kasbiy tarbiyani amalga oshirish bosqichlari, ta'lif va tarbiya, yoshlar.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda unib-o'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni ma'navaiy-ahloqiy tarbiyalashga dolzarb muammo sifatida qaralayotgani beziz emas. CHunki texnika va texnologiyaning rivojlanishi natijasida xorijiy mamlakatlarning tijorat madaniyati, zo'ravonlik, xudbinlik, yolg'onchilik, pornografiya va boshqalarning ta'siri sezilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev "**Agar mendan sizni nima qiyaydi**" deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lif va tarbiyasi deb javob beraman.-deb ta'kidladilar. Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining asosiy ustivor yo'nalishlaridan biridir.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy, madaniy, ma'rifiy merosni tiklash, ulug' mutafakkirlarimizning ta'limatlarini o'rganish, pedagogik va ilmiy nizariy jixatdan tahlil qilish, shu asosda tug'ilgan fikr va mulohazalarni yosh avlod ongiga singdirish , ta'lif-tarbiya mazmunini ajdodlarimiz merosidan davr talablari va yoshlarning ma'naviy ehtiyojlariga mos keladigan qarashlar va g'oyalar bilan boyitish uchun bugungi kunda qulay pedagogik imkoniyatlar mavjud.





Katta ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida inson omilining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Hayotning barcha jabhalarida, ijtimoiy sohalarda, madaniy-maishiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan, boshqarish tarmoqlarida xizmat qilayotgan shaxslarning ongli, faol ijodkor, yangi texnika va texnologiyasirlarini yaxshi o'zlashtirgan, fazilatli, bir so'z bilan aytganda, madaniyatli bo'lishini zamonning o'zi taqazo etmoqda. Lekin kishi o'z-o'zidan madaniyatli bo'lib qolmaydi.

Madaniyatli bo'lishi uchun inson doimo o'z-o'zini tarbiyalab borishi zarur. Uning o'z-o'zini tarbiyalash xarakterini shakillantirish, madaniyatini kamol toptirish, o'zidan qimmatli insoniy qadriyatlarni ongli ravishda rivojlantirish yo'lidir. Kishi o'zini-o'zi tarbiyalashga intilmas ekan, boshqalar uni tarbiyalay olmaydi, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin, xolos. Madaniyat asosi esa ta'lim tarbiyadir. Ta'lim-tarbiyasiz madaniyat yo'qdir. Kishi kasb madaniyatining ham qator asoslari mavjud.

Masalan, ma'naviyatsiz axloqsiz, siyosiy qarashlarsiz, huquqiy bilimsiz, xushmuomalaliksiz, yaxshi xulq-atvorsiz, ijodkorliksiz, bir so'z bilan aytganda, insoniy fazilatlarsiz kasb madaniyatini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Holbuki, turli soha mutaxassislari, xizmat ko'rsatish korxonalari xodimlari, tibbiyot xodimlari, ayniqsa, o'qituvchi, ustoz-murabbiy, rahbarlarning kasb madaniyati yuksak bo'lishi lozim. Ularning madaniyatsizligi o'zlariga, balki millatga zarar keltiradi. Madaniyatsizlik ma'naviyatsizlikdandir. Ma'naviyat bo'lмаган joyda madaniyat nima qilsin? Kishining ma'naviyati uning kasbiy faoliyatida, xulq-atvorida ko'rindi. Kasbiy sohada madaniyatsizlik ham ma'naviy nosog'lomlikdan kelib chiqadi.

Demak, ma'naviyat kasb madaniyatning asosiy unsurlaridir. Kasb madaniyatini rivojlantirish omillaridan biri bu-**kishining ma'naviyatini kamol toptirish**. Ma'naviy kamolat o'z-o'zining tarbiyalash orqali amalga oshadi. O'z-o'zini tarbiyalashning hech qachon kechi yo'q, faqat istak bo'lsa bas. Bu dunyoda, agar istak bo'lsa, o'zi xulq-atvorini "**to'g'rilay**" olmaydigan insonning o'zi bo'lmasa kerak.

Kasb madaniyatini shakllantirishning **ikkinci omili kasbiy faoliyatni rivojlantirishdir**. Kasbiy faoliyatni rivojlantirmay turib, kasbiy madaniyatga erishib bo'lmaydi. Kasbiy faoliyat sohasida o'z-o'zini faollashtirmagan, o'zligini, insoniy mohiyatini, ijodkorligini, kasbiy layoqatini rivojlantira olmagan odam ojiz kishi bo'lib qolaveradi. Demak, kasb madaniyatining shakllanishi uchun kasbiy bilim va tajriba ijtimoiy faollik, axloqiy fazilatlar muhimdir.

Bilim va bilim olish madaniyat degani emas, uni ezgu maqsadlar yo'lida qulay bilish madaniyatidir. O'z madaniyatini yuksaltirish-insonning ma'naviy ehtiyojiga aylanishi zarur. Ma'naviy ehtiyoj ma'naviy sohada faoliyat ko'rsatishni talab etadi. Faoliyat mehnat demakdir. Mehnat esa insonni aqliy va ahloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Umuman, tarbiya va ma'naviyatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir halqning o'ziga xos tarbiya usullari mavjud. Ular halqning moddiy va ma'naviy madaniyati rivojiga bog'liq ravishda shakllangan. Xalqimizning asrdan-asrga, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari ziynatlangan tarzda ma'naviyatimiz va milliy tarbiyamizda o'z





ifodasini topishi lozim. Zero, bugungi kunda kasbiy faoliyat jarayonida kasb madaniyati ijtimoiy zaruratga, insonning ma'naviy extiyojiga aylanib borar ekan, kishilarda kasb madaniyatining, kasbiy tarbiyaning o'rni o'ta muhimdir. Lekin inson tayyor kasb madaniyati bilan tug'ilmaydi. U kasb madaniyatiga uzlusuz kasbiy va ahloqiy tarbiya orqali erishadi. Demak, kasb madaniyatining shakllantirishning uchinchi omili kasbiy tarbiyadir.

Kasb-hunar ta'limi o'quvchi-yoshlarga tegishli mutaxassisliklar bo'yicha bilim berishni, ularni amaliyatga o'rgatishni nazarda tutsa, kasbiy tarbiya esa ularning ongi, tasavvuri, dunyoqarashi, xatti-xarakati, his tuyg'ulari, fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatish va mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni o'z oldiga asosiy masala qilib qo'yadi. Bizningcha, ta'lim tarbiya vositalari yoki ammalarimiz kasb-hunar o'rganayotgan o'quvchilarda kasb madaniyatini shakllantirish amri maholdir. Demak, ta'lim-tarbiyada kasb madaniyatini shakllantirish masalasiga alohida muammo tarzida qaramoq zarur.

Ko'p hollarda kasb madaniyati deyilganda kishining kasbiy faoliyati doirasidagi axloq-odobi, yurish-turishi, jamoa orasida o'zini tuta bilishi, xamkasblari bilan yaxshi muomala-muloqot qilishi, ozoda kiyinib yurishi, kamtar, ishni tashkil eta olishi va boshqalar tushuniladi. Ularning barchasi kishi madaniyatining o'ziga xos ko'rsatkichlaridir. Ammo kishining kasb madaniyati faqat uning kasbiy faoliyati doirasidagi axloqiy me'yorlar va tartib qoidalarga amal qilishdangina iborat emas. Bundan kelib chiqadiki, kasb madaniyatini faqat kasbiy faoliyat doirasidagina o'rganish, ta'riflash talqin qilish, tushuntirish to'g'ri bo'lmaydi.

Garchi kasb madaniyati tushunchasi kasbiy faoliyat bilan bog'liq masalalarni, insonning kasb sohasidagi ma'naviy-ahloqiy kamolati muammolarini teranroq oydinlashtirib bersa-da, uni kishining umumiy madaniyati bilan uzviy bog'liq holda qaramoq lozim. Albatta, kasb madaniyati kishi kasbiy faoliyatining barcha qirralarini qamrab oladi. Kishining kasbiy faoliyati, ijodkorligi, mahorati munosabat-muloqati, amaliy va nazariy ishlari, ishlab chiqarish yoki mehnat jarayonidagi yutuqlari asosi uning kasb madaniyatini qanchalik o'zlashtirib olganiga bog'likdir. Kasb madaniyatining zaminida mehnat yotadi. Mehnat ko'nikmasini egallamay mehnat qilishga o'rganmay kasb madaniyatini ham shakillantirib bo'lmaydi.

Kasb madaniyati shakillanishiga ham o'ziga xos sub'ektiv va ob'ektiv omillar ta'sir qiladi. Sub'ektiv omil kishi shaxsiyatining xususiyatlari, hayotiy ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ob'ektiv omil esa shaxs yashayotgan ijtimoiy muhitga, shuningdek, u faoliyat ko'rsatiyotgan jamoadagi moddiy va ma'naviy shart sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Kishi o'zi sevgan kasb-kor yoki hunarga bo'lgan qiziqish, ehtiyojini qondirishga intilar ekan, shubhasiz, kasb madaniyatini ham yuksaltirishga harakat qiladi, bu borada faoliyat ko'rsatadi, mehnat qiladi, izlanadi, ijod qiladi, yaratadi. Bu sifatda ayniqsa kasb-hunar sir-asrorlarini mukammal bilishga intilishda ko'zga tashlanadi. Qaysi sohada bo'lmasin kishi aqliy, hissiy, tajribaviy bilish orqaligina kamol topadi. Kasbiy madaniyat ham bundan mustasno emas. Kasb-hunar ta'limi ham bilish va






kamol topishining o'ziga xos yo'lidir. Kishi kasb madaniyatining shakillantirishida o'z kasb-koriga bo'lgan qiziqish-e'tiboridan tashqari, yana tashabbuskorligi, tashkilotchiligi, maqsad sari qat'iy intiluvchanligi, o'z-o'ziga talabchanligi, jamoa a'zolarining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur bilishi, o'z faoliyati va ishga tanqidiy munosabatda bo'lishi, Vatan, jamiyat, xalq, odamlar oldidagi mas'uliyat va burchini to'la his qilish kabi qator sub'ektiv omillar ham katta ahamiyatga egadir. Har qalay, insoniy fazilat bor joyda ezgulikka muxabbat, ezgulikka muxabbat bor joyda ijodkorlik, ijodkorlik bor joyda esa madaniyat mavjuddir. Biroq kasb madaniyatining shakillanishi uchun xohish-istik yoki ma'naviy ehtiyojlarning o'zигина yetarli emas, balki ijtimoiy sog'lom muhit ijtimoiy shart-sharoit, kasbiy munosabatlarni belgilab beradigan vositalar ham muhimdir. Bir so'z bilan aytganda, kasbiy madaniyat inson jamiyati madaniyatining ajralmas qismidir. Uning asosida jamiyatda amal qilayotgan inson xulq-atvori me'yorlarini belgilovchi axloq va kasbiy qadriyatlar yotadi. Masalan, kishi kasbiy faoliyatida havodek zarur bo'ladigan ma'naviy asoslarni uning ma'naviy madaniyati ta'minlaydi. Zero, insonning ma'naviy qiyofasi uning kasb madaniyatining bosh mezonlaridan biridir. Ma'naviy qiyofasiz kishida kasb madaniyati bo'lmaydi. Insonning ma'naviy olami qanchalik boy bo'lsa, uning kasb madaniyati ham shunchalik mazmundor va go'zal bo'ladi. Ma'naviy asos bo'lмаган joyda kasb madaniyati yo'q.

Shuning uchun inson ham, har bir kasb-kor egasi eng avvalo, ma'nviyatning inson hayotida tutgan o'rni, ijtimoiy mohiyati va mazmuni, tizimi, uning jamiyat taraqiyotidagi ahamiyati hamda mavqeini juda yaxshi bilishi zurur. Kishining kasb madaniyatinin aslida uning ma'naviyatga bo'lgan munosabati belgilaydi.

Ma'anviyatsiz inson bo'lмаганidek, ma'naviy barkamol insonlarsiz jamiyat ham rivojlanmaydi. Ma'naviyat kishining muayyan maqsadga intilib, kelajakka ishonch bilan borishi uchun katta umid, kuch-qudrat bag'ishlaydi. Inson o'z aqli, o'z qo'li bilan nimaiki qilmasin yoki yaratmasin, ularning tub zaminida fikr, tushuncha, bilim, iste'dod, ijod, qobiliyat, shakillangan ma'naviyat yotadi. Kasb madaniyati, shabhasiz, huquqiy bilimga ham bog'liq. Chunki har bir kishi amaliy faoliyatida inson jamiyatini tomonidan belgilangan qonunlarni hurmat qilishi, unga og'ishmay rioya etishni zarurat dbe bilishi kerak.

Hozirgi zamon kishisining kasbiy faoliyatidagi zaruriy asoslardan biri bu haqiqiy ong, huquqiy bilim, huquqiy munosabatlardir. Insonning huquqiy madaniyati uning kasb madaniyatini boyitadi. Kasb-kor sohibi kasbiy sohasidagi huquqiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini va ma'naviy qadrini tushunishi, fuqorolik huquqi va burchining o'zaro bog'liqligini anglashi, ijtimoiy hodisalarini huquqiy nuqtai nazarda baholay bilishi kerak. Har qanday kasb-kor sohibining huquqbazarligi, qonun doirasidan chetga chiqish sababi uning ma'naviyatsizligi, e'tiqodsizligi, nomukammalligi umumiy va kasbiy madaniyatining yuqori emasligi oqibatidir.

Aytaylik dehqonchilikni sir asrorlarini, ya'ni yerga ishlov berish, qachon haydash, qachon sug'orish, qanday qilib sug'orish, qachon urug' ekish, urug'ni ekishga tayyorlash, ekinni parvarishlash, yerga hosilga o'g'it berish, hosilni yig'ishtirish saqlash





kabi faoliyat tartib-qoidalarini bilmagan, bir so'z bilan aytganda, dehqonchilik madaniyatidan bexabar odam yaxshi natijalarga erisha olmagani kabi o'qituvchi ham, agar pedagog kasb madaniyatini yaxshi bilmasa, u o'z faoliyatida pedagogik muammolarni yaxshi hal etolmaydi.

Uning o'ziga munosib shogird yoki yetuk kadr tayyorlashi amri maholdir. Demak kishining kasbiy madaniyatini uning boshqa sohalardagi madaniyatidan ayri holda qarab bo'lmaydi. Kishi kasbiy madaniyatining yuksalishida uning axloqiy madaniyati, siyosiy madaniyati, huquqiy madaniyati, hulq-atvor madaniyati, til-muomila madaniyati, mehnat madaniyati va boshqa madaniyatlarning ta'siri ulkandir. Har bir o'qituvchining faoliyati nazariy mashg'ulotlarda ham, amaliyotda ham bevosita so'z bilan, til bilan, nutq bilan bog'liqdir. Chunki har bir dars yoki mashg'ulotda o'rganilidigan mavzuni o'quvchilarga shunchaki gapirib yoki so'zlab berish bilan cheklanib qolmasligi, ayni chog'da uni jonlantirish, obrazli, qilib badiiy tarzda talqin etishi lozim. Demak o'qituvchining kasbiy faoliyatida uning nutq madaniyati ham muhumdir.

Bu vazifa va maqsadlarni amalga oshirish ta'lim va tarbiya ishlarini uyg'un holda jlib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falikat masalasidir" degan so'zları porloq kelajagimizni quruvchi yoshlarni tarbiyalash g'oyasining mazmunini tashkil etadi.

Insonning barcha jabhalarda, ya'ni aqliy ma'naviy, jismoniy, kasbiy yo'naliishlarda rivojlanishining asosiy zamini ham madaniyat va u haqdagi bilim – tushunchalar majmuasi xisoblanadi. Biroq kishining kasb madaniyati amaliy faoliyat, mehnat, o'qish, izlanish tajriba orqali mustahkamlanadi. Albatta, o'qituvchining kasb madaniyatining belgilovchi qator omillar mavjud. Ulardan biri o'qituvchining darsni zamonaviy tashkil eta bilishi, to'g'rirog'i, o'tadigan darsning zamonaviy bo'lishidir. O'qituvchi o'z faoliyani hamisha tanqidiy tahlil etishi, mahoratini oshirishi, ishga ijodiy yondosha bilishi, o'quvchilarga namuna bo'lishi lozim. Bundan tashqari, u doimo o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirib borishi zarur. Hozirgi vaqtida o'quvchining kasb-hunarga, mehnatga muxabbat ruhida tarbiyalash muhum vazifadir. O'qituvchining bu borada muvoffiqiyatining eng asosiy ko'rsatkichi, bu – dars sifatidir. Chunki xuddi ana shu dars jarayonidan o'qituvchining kasb madaniyatini, shaxsini, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini, mahoratini, o'z kasbiga bo'lgan e'tibor-qiziqishini, kasbiy layoqatini, o'quvchilarning bilim olishi, darsliklardan foydalanishi va tarbiyalanganlik darajasini kuzatish hamda ularga baho berish mumkin bo'ladi. Kasb-hunar ta'lim muassasalarida predmetlardan, maxsus fanlardan beriladigan darslar zamonaviy bo'lishi uchun o'qituvchi hozirgi zamon pedagogikasini yutuqlari, texnikasi va texnologiyasi, didaktikasi va o'qitish metodikasini juda puxta o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtida dars sifati va samaradorligini oshirish uchun uchlik prinsipi, ya'ni ta'lim tarbiya, o'quvchining rivojlanishi (shaxs yo'naliishi va kasbiy sohalarda) birligi o'ta muhumdir. Bu maqsadga yo'naltirilgan holda o'quvchilarga





tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatishni talab etadi. Zero, o'z-o'zidan o'zlashtirilgan bilim bu hali avtomatik ravishda o'quvchilarning ma'naviyati, shaxsni, dunyoqarashi shakillanishi imkoniyatini beradi degan so'z emas. O'qituvchi o'quvchi shaxs bo'lib yetishishi uchun qator ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Ta'limgartarbiyada ularni nazarda tutmasdan turib, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Bu o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi, milliy g'oya milliy qadriyatlar, diniy va dunyoviy bilimlar orqaligina yetuk shaxs qilib tarbiyalash mumkinligini ko'rsatadi. O'qituvchi ta'limgartarbiya beruvchi, madaniyatga eltuvchidir. SHu bois uning jamityada alohida o'z o'rni bor. Biroq ko'p narsani bilih, bu hali donishmandlik belgisi yoki saboq berish huquqi degani emas. Pedagogika fani qoidalarini bilmasdan turib o'qituvchi kasbiy madaniyatini yuksaltira olmaydi. Kasbiy madaniyat kasbiy sohada yutuqlarga erishmoq natijasi. Kasbiy sohada o'qituvchi muvoffaqityaga erishish uchun u mashg'ulotlarga tayyorlanishda didaktik yo'nalishda ishlab chiqilgan darsni tashkil etish qoidalariga tayanishi lozim.

**-Birinchi** -ayni darsning maqsadini aniqlash, ya'ni nimaga erishish lozimligini belgilash;

**-Ikkinchi** -o'rganiladigan materialning hajmini aniqlash, ya'ni materialni qo'yilgan maqsad va o'quvchilarning imkoniyatlariga qarab belgilash, bilimni amaliyot bilan bog'lash;

**-Uchinchi**-darsning didaktik masalalarini shakillantirish, ularni ketma-ket hal etish natijasida maqsadga oshishrish;

**-To'rtinchi**-qo'yilgan maqsadga muvofiq xolda uslub va usullarning eng maqbul birligini tanlash;

**-Besinchi**-darsni aniq tashkil etishni ta'minlash uchun uning tuzilishini aniqlash, reja asosida o'rganilishi, yaxlitligi, o'qituvchi faoliyatining birligi, o'qituvchining o'quv-bilim jarayonini boshqara bilih imkoniyati;

**Oltinchi** – darsda rejalashtirilgan barcha didaktik masalalarni hal etish va ularni o'quvchilarga uyga vazifa tarzida bermaslik.

Mashg'ulotni ana shu tarzda tashkil etish o'qituvchining kasbiy madaniyati elementlaridan biridir. Umuman, sivilizatsiya insonning inson sifatida shakillanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aynan insonning madaniyat yarata bilih qobiliyati uni hayvonot olamidan ajratib turadi. Aynan madaniyatni rivojlanish darajasi bilan inson evolyutsiyasi (tadrijiy takomili) ning quyi va yuqori bosqichlari bir-biridan farq qiladi. Insonning har qanday vazifasi tashqi olamga bog'liq. Biz tevarak-atrofdagi odamlarni kuzatib o'ylaymiz, muloxaza yuritamiz va ulardan ko'p narsalarni o'rganamiz. Jamiyatda to'plangan bilimlar asosida inson o'zining turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Demak, haqiqatdan kasb madaniyati nafaqat kishining ish faoliyatiga foydali, balki uning aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga, kamol topishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shubhasiz, o'qituvchining kasb madaniyati uning kasb mahorati, kasbiy sohadagi ijodkorligi bilan belgilanadi. O'qituvchi mahoratini aniqlashda uning faoliyati Davlat ta'limgartarbiy standartlari talablari va pedagogik shartlariga nechog'lik mos kelishi





nazarda tutiladi. Lekin o'qituvchi mahorati faqat shu bilangina belgilanmaydi. O'qituvchi ta'lif tizimida va pedagogik jarayonda o'zini bunyodkor sifatida xis etishi va anglab yetishi lozim. Pedagog voqelikda o'z o'rnnini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab etib bo'lmaydi. Holbuki, kasb madaniyati, kasb mahorati, pedagogikadagi muvaffaqiyat pedagogik ijodkorlikka bog'liqdir.

Vazifamiz yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikni to'g'ri anglatish, ularning qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'usini rivojlantirish, millati va xalqi uchun ulkan bunyodkorlik ishlariga safarbarlikni uyg'ota olish. Ana shundagina, ular ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lida birlashadilar.

Yoshlar birlashsa, millat birlashadi. Birlik va hamjihatlik esa, xalqimizning ertangi kuni va porloq kelajagini belgilab beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.**SH.M.Mirziyoyevning Erkin va farovon, demoktarik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–Toshkent:O'zbekiston, 2016.
- 2.**SH.M.Mirziyoyevning Qonun ustivorligi va inson manfatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent:O'zbekiston, 2016.
- 3.**SH.M.Mirziyoyevning Milliy taraqqiyot yo'limizning qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent:O'zbekiston, 2017.
- 4.**SH.M.Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston Strategiyasi. –Toshkent:O'zbekiston, 2021.
- 5.**O.To'raqulov, U.Ro'ziyev Halq qalbiga yo'l.-Mashhur-Press nashiriyoti,2021.
- 6.**D.Himmataliyev, B.Xoliyev. O'MKHTRI o'qituvchisi. kasb-hunar ta'limi jurnali.2013.

